

Aziz birinchi kurs talabalari!

Shu ondan boshlab siz O'zbekistondagi yetakchi oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lmish Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti katta jamoasining to'liq a'zosiga aylandingiz. Sizning oldingizda ilm -fan va ijod olamiga eshiklar ochildi. Qaysi hayot yo'lini tanlashingiz va hayotda nimaga erishishingiz faqat sizga bog'liq. Asosiysi, o'z oldingizga yuqori maqsadlar qo'yish va ularga intilish.

Turin universiteti talabalari sifatida siz Italiya va O'zbekistonning eng yaxshi professor -o'qituvchilaridan bilim olishingiz, eng zamonaviy ilmiy asbob-uskunalardan foydalangan holda taniqli olimlar rahbarligida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishingiz, eng yaxshi universitetda talabalik yillarini o'tkazishingiz mumkin.

Siz Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasi jadal rivojlanayotgan davrda talaba bo'ldingiz.

Universitetimizda o'qigan yillaringizdan unumli foydalanishingizni tilayman. Ilm -fan yo'lida ijodiy va ilmiy g'alabalar hamroh bo'lsin, har bir yangi o'quv yili sizni – hayotda o'z o'rningizni topib, buyuk mamlakatimizning munosib fuqarolari bo'lish kabi asosiy maqsadga yaqinlashtirsin!

Rektor,

Jamshid Inoyatxo'jaev